
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Резюме. Как бы разнообразны и противоречивы ни были трактовки системы, для них существует абсолютно единая общая основа, признаваемая всеми науками. Это соединение более чем одного элемента системы, основанное на отношениях взаимного требования и отрицания. В лингвистике такую ситуацию можно отличить только по уникальности элемента (объекта). В традиционной систематической теории, наряду с понятиями элементов и отношений, порядок является одной из основных систематических характеристик. Несомненно, системой можно назвать объекты, обладающие внутренним порядком, взаимосвязанными частями и элементами. Речевой процесс не является исключением.

Resume. No matter how diverse and contradictory the interpretations of the system may be, there is an absolutely single common basis for them, recognized by all sciences. This is a connection of more than one element of the system, based on a relationship of mutual demand and negation. In linguistics, such a situation can be distinguished only by the uniqueness of the element (object). In traditional systematic theory, along with the concepts of elements and relations, order is one of the main systematic characteristics. Undoubtedly, a system can be called objects that have an internal order, interconnected parts and elements. The speech process is no exception.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

USLUB ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA UNING TIL TARAQQIYOTIDAGI TURLI DAVRLARDA QO'LLANISHI

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Har bir individ, ya'ni shaxs tashqi olamdan o'zicha ta'sirlanadi-da, uni o'zicha tushunib, idrok etadi, hamda o'zgaga yetkazishga intiladi.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatilishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Ha, umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi **nutqning** xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari esa **nutq stillari** deb yuritiladi.[1]

Stil (uslub) asli grekcha «stilas» so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi **qalamdir**. Bunday qalam qadim zamonlarda va o'rta asrlarda yozish-chizish quroli bo'lib xizmat qilgan. Insonlar esa o'z fikr-mulohaza shaklini shu qalam vositasida chizganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, u vaqtlarda hozirgiday **qalam, qog'oz** bo'lmagan, balki hozirgidek **qog'oz o'rnida-mum surtilgan taxtakachu, qalam** (ruchka) **o'rnida** – ana **shu** «stil»ni ishlatganlar. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtakachlarga shu tayoqcha bilan yozganlar. Xato yozilgan so'z yoki gaplarni tayoqchaning yassi tomoni bilan o'chirib tuzatganlar. Rimliklar ham, hindlar ham, arablar ham bunday tayoqchalardan o'z maqsadlarini ifodalashda foydalanganlar.

Davrlar o'tishi bilan u yoki bu yozuvchining **so'z tanlash, gap tuzish** usulini **stil** deb atay boshlaganlar. **F. Nasriddinov** o'zining «Til, uslub va obraz» maqolasida shunday deydi: «Biz tushungan stil mutlaqo boshqa ma'noda, ya'ni yozuvchining o'ziga xos bo'lgan badiiy mahorati bo'lsa ham, lekin u o'sha genetik ma'no bilan qarindoshlik alomatlarini yo'qotgan emas. Chunki biz ham hozir **stil** deganda u yoki bu yozuvchining yozish yo'li-yo'sinini anglaymiz. Faqat farqi shundaki, bunda yozuvchi yozgan asarlar ko'z-

[1] Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 9.

da tutiladi».[1] **Uslub** har bir yozuvchining o‘ziga xos bo‘lgan badiiy tasvir usulidir.

Mavzu yuzasidan Shomaqsudov A. va boshqalar tomonidan 1983-yilda yaratilgan “O‘zbek tili stilistikasi”, akademik Y.Gartning asarlari, Konstantin Fedinning “Til haqida munozara” kabi asarlari ahamiyatli sanaladi. Akademik Y. Gort tili bilan aytsak, **uslub bu** – tom ma’noda yozuvchining bayonlash xarakteri, **bu – nutqqa munosabat**, ya’ni yurganingizda gavdangiz qanday harakat qilsa, xuddi o‘shanga xos bir gap, yozishdagi husnixat, aft-angoringiz va yuz ifodangizdir; bu har bir yozuvchining individual ko‘rinishidir.[2] **Nutq, nutq jarayoni va uni qabul qilish kabi hodisalarni** psixologiya, fiziologiya kabi fanlar ham o‘rganadi. Lekin tilshunoslik tilning faoliyat shakllari, bularning kommunikativ, emotsional va tarbiyaviy-ta’limiy tomonlari yuzasidan bahs yuritadi. Tilning bu xususiyatini chuqur o‘rgangan rus olimlari rus tili stilistikasi bo‘yicha talaygina asarlar yaratdilar.

O‘zbek tilshunosligida ham uslubiyatga oid ilmiy ishlar yaratildi, maqolalar yozildi. 1980 yillarga kelib, vazifaviy uslublar bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi hamda qilinmoqda. Masalan, R.Qo‘ng‘urov, I.Qo‘chqortoyev, B. O‘rinboyev., M. Mukarramov, E. Qilichev, A.Shomaqsudov va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografiya va risolalari o‘zbek tili uslubiyatining fan sifatida shakllanishiga hissa bo‘lib qo‘shildi.

Rus tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham uslubiyatning predmeti, tekshirish obyekti bir tomonlama ko‘rsatiladi. Deyarli, barcha manbalarda ekspressiv bo‘yoq kasb etgan til hodisalarigina uslubiy obyekt sifatida talqin etiladi. Bunday talqin uslubiyatning mazmun va imkoniyatlarini ancha toraytirib qo‘ydi. Shuni e’tirof etish kerakki, tilda uslubiy mohiyat kasb etmaydigan hech narsa yo‘q. Demak, uslubiyat tushunchasi «til», «nutq», «ekspressiya» tushunchalariga nisbatan juda keng, hatto cheksiz-chegarasizdir. Biroq uslubiy tahlil jarayonida tilning umumlashtirish xususiyatlarini hisobga olib, fonetika, leksika, morfemika, morfologiya va sintaksislarda alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisalar chetlab o‘tiladi, punktuatsiya esa deyarli tilga olinmaydi.

Tajriba va kuzatishlarimizdan ma’lumki, bir yozuvchining bir emas, bir necha asarlarini o‘qir ekanmiz, ular orasida shakliy o‘xshashliklar, u yoki bu darajada yaqinlik borligiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun ham u yoki bu yozuvchining **uslubi** haqida fikr yuritganimizda ana shu «o‘xshash» tomonlarga, «yaqinliklarga» qarab, ulardagi umumiy tomonlarni aniqlab olamiz-da, «Bu Abdulla Qodiriyning tili», «Bu Oybekning tili», «Bu Abdulla Qahhorning tili», «Bu Said Ahmadning tili», «Bu O‘tkir Hoshimovning tili», «Bu Tohir Malikning tili yoki uslubi», deya hukm chiqaramiz. Chunki har bir yozuvchining individual uslubi mazkur adibning faqat o‘zigagina xosdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, **har qanday uslub** (so‘zlashuv uslubi, rasmiy ish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub va b.) ning **asosi, uning yuragi til hisoblanadi.** Bu – uslub, go‘yo, shaxmat taxtasidagi shohdir. Agar Shoh yo‘q ekan, hech qanaqa o‘yin ham bo‘lishi mumkin emas. **Til yo‘q ekan – yozuvchi ham yo‘q.**[3]

Turkiy tilda so‘zlashuvchi urug‘-qabilalar ittifoqi va ular tilining shakllanishi juda qadim zamonlardan boshlanadi.[4] Uning asosiy fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari negizi uzoq vaqtlar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan bo‘lib, bu haqda Sibirda, Mo‘g‘ulistonda, Qozog‘istonda va O‘rta Osiyoning turli joylarida topilgan qadimgi turkiy yozma yodgorliklar juda yaxshi tasavvur beradi.[5] Masalan, Shimoliy Mo‘g‘uliston hududidan o‘tgan **Yenisey va O‘rxun** daryolari bo‘ylaridan topilgan yozuv. Buni **O‘rxun-Yenisey** yozuvlari deb yuritishadi. «Bu yozuv yodgorliklarini hozirgi turk xalqlaridan birortasi yaratgan deb aytish to‘g‘ri chiqmaydi, chunki u zamonlarda urug‘-qabilachilik davrini boshidan kechirayotgan **turk xalqlari** (VI-VIII asrlar) hali mustaqil xalq sifatida uyushmagan edilar. Bu yodgorliklarning tili haqida ham xuddi shuni aytish kerak bo‘ladi. Bu yozuv yodgorliklarini yaratishda so‘nggi taraqqiyot davrlarida turk xalqlarining tashkil topishida ishtirok etgan juda ko‘p turli-tuman qabila va urug‘lar qatnashgan, desak haqiqatga yaqinroq bo‘ladi».[6]

Tadqiqot va kuzatishlarga ko‘ra, bizgacha yetib kelgan O‘rxun – Yenisey (Enasoy) va shuning singari boshqa ko‘pgina **yozma yodgorliklar** barcha turkiy urug‘-qabilalarning hayoti va faoliyatida xizmat qilgan **qadimgi turkiy tilning boy hamda har jihatdan taraqqiy etganligidan guvohlik beradi.** Shuningdek, turkiy xalqlar adabiy tilining ilk taraqqiyot davri va **uning uslubiy tur-xillarini aniqlashda ham bu yodgorliklarning ahamiyati katta ekanligini alohida ta’kidlash joizdir.**

A.Sh.Shomaqsudov yuqorida qayd etilgan maqolasida o‘zbek xalq tili taraqqiyotining qadimgi davrini **mavjud yozma yodgorliklar** va ularni o‘rganishga oid ilmiy tekshirish ishlari asosida ikkiga ajratishni

[1] O‘zbek tili stilistikasi masalalari, Ilmiy asarlar to‘plami, 486. – Toshkent: Toshkent Davlat universiteti, 1975. – B. 44.

[2] Gort YA. Filologicheskiye roziskaniya. 1899. – C. 74-75.

[3] Fedin K. Til haqida munozara. – Moskva: Pisatel, iskusstva, Vremya. 1957. – C. 338.

[4] Qarang. Yaziki narodov. tom 2. Tyurkiskiye yaziki. – Moskva: 1966. – C. 14-15.

[5] Shomaqsudov A. SH. O‘zbek tili va uning stilistik turlarining tarixiy ildizlari masalasiga doir, O‘zbek tili stilistikasi masalalari, Ilmiy asarlar to‘plami, 486. – Toshkent, 1975. – B. 3.

[6] Yu.X. Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: O‘z «Fan», 1971. – B. 48.

ta’kidlaydi. Masalan, qadimgi o‘zbek tilining tarkib topishi va yozma adabiy til an’analarining vujudga kelish davri (XI-XII asrlar). Bu davrning muhim yodgorliklari sifatida esa Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» (XI asr), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul xaqoyiq» (XII asr) asarlarini hamda bu davrda yaratilgan yuridik xujjatlarni ko‘rsatish mumkin.[1]

Ikkinchi davr esa (XII-XIV asrning yarmi) Sharqiy adabiy til an’anasi ta’sir doirasining kengayib borishi bilan xarakterlanadi. Bu davrning yodgorligi sifatida Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmati» (XII asr), Rabg‘uziyning «Qissaul anbiyo» (XIV asr) asarini; shuningdek, adabiy tilning Oltin O‘rda shaklida yozilgan Qutbning «Xisrav va Shirin», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarini hamda adabiy tilning **chig‘atoy ulusi tilida yozilgan** «Yusuf va Zulayho», «O‘g‘uznoma» kabi asarlarni ko‘rsatish maqbuldir.

Shuni ham aytish kerakki, eski turkiy tilning **uslubiy turlari** shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalardan biri – «Qutadg‘u bilig»da ishlatilgan «bug‘raxon tilincha» ifodasiga berilgan izoh va tushuntirishga doxil mulohazalardir. **E’tibor bering**. «Qutadg‘u bilig» muallifi Yusuf Xos Hojib asarning **nasriy muqaddimasida shunday yozadi**: «Mochin olimlari va hakimlari qamug‘ ittifoq bo‘ldilar, kim Mashriq viloyotinda Turkiston ellarinda **Buxraxon tilincha** bu kitobdin yoxshiroq hargiz kim ersa tasnif qilmadi»

Tadqiqotchilardan biri – Qayum Karimov «Buxraxon tilincha» iborasini keng ma’noda tushunib, «Buxraxon qo‘l ostida birlashgan **turk davlati** tarkibiga kirgan hamma asosiy qabilalar uchun tushunarli bo‘lgan» tilni nazarda tutmoq zarurligini ta’kidlaydi.[2] Turkiyshunos olim S.Ye.Malov esa o‘z tekshirishlaridan birida **bu iborani stil** (uslub) ma’nosida ham tushunish mumkinligiga ishora qiladi.[8]

Muallifning o‘zi ham «Qutadg‘u bilig»ning she’riy muqaddimasida asarni «xon tilincha» tartib berib yozganini aytadi:

Bu Bug‘raxon vaqti ichra ani
*Yema **xon tilincha** bu etmish muni*
Mazmuni:
Bu Bug‘raxon davrida uni (yozilib),
*Shuningdek, **xon tilinda** bunga tartib berilgandir.*

Yana asar muallifiga murojaat etar ekanmiz, u yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, «xon tilincha» tartib berib yozgan bu asarini Qoshg‘orda yozib tugallaganini, kitob esa «xonlar xoni Tavg‘och Qora Bug‘ra»ga manzur bo‘lganini aytib o‘tganligining guvohi bo‘lamiz.[9]

Bulardan tashqari, Yu.X.Hojib «Qutadg‘u bilig» asarini **qaysi tilda** yozganligi haqida ma’lumot berar ekan, **turkcha** degan terminni ishlatadi:

Arabcha tejikcha kitoblar o‘qush
Bizning tilimizcha bu yumg‘i o‘qush
*Bu **turkcha qo‘shuqlar** tuzattim senga*
O‘qurda unitma duo qil menga.[9]
Mazmuni:
Arabcha-tojikcha bunday kitoblar talaydir,
Bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir.
Senga bu turkcha qo‘shiqlarni tartib berdim,
O‘qirda unutma, mening haqimga duo qil.

Muallif asarining oxirgi bobida **turkcha so‘zga** ishlov berganini, uni yig‘ib-terib to‘planganini; bu **turkcha so‘zni yovvoyi tog‘ kiyigiga o‘xshatganini, ularni ohista ushlab**, aldab o‘ziga yaqinlashtirgani, ya’ni o‘rgatganini badiiy misralarda ifodalab beradi.[9]

Ko‘rinadiki, Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» asarini yuqoridagi «turkcha» deb nazarda tutilgan tilda, ya’ni Bug‘raxon saltanati tarkibiga kirgan qabilalar uchun tushunarli bo‘lgan tilda yozgan. Uning «Bug‘raxon tilincha» deyishidan maqsadi, S.Ye.Malov ishora qilganidek, **oliy, mo‘tabar uslub** (visshiy stil) ni, ya’ni o‘sha davr xon saroyiga mansub **rasmiy-kitobiy** nutqni tushungan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas.[2]

Yozuvchi jamiyatdagi turli aloqa ehtiyojlarini qondirishda yozuvning ahamiyatini ham alohida ta’kidlaydi.[9]

Bu yerda ham Yu. X. Hojibning **tilni** ekspressiv-uslubiy jihatdan **og‘zaki nutq** («tilin so‘z») va **yozma nutq** («bitig so‘z») deb farqlash haqidagi ishorati ham o‘sha davr **nutqining** ma’lum uslubiy turlarini o‘rganish nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida uslubiyatning fan sifatida shakllanishi, asosan, 1950-yillardan so‘ng boshlangan bo‘lsa ham, uning kurtaklari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Masalan, yuqorida qayd etganimizdek, «Qutadg‘u bilig», «Hibbat-ul-haqoyiq», «Devonu lug‘otit turk» kabi yodnomalarda **tilga e’tibor, so‘z tejash, mantiqiy va qisqa gapirishga da’vat etish motivlari borki,** bular mazmuni jihatidan **uslubiy mohiyat** kasb etadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlari, ayniqsa, uning «Muhokamat-ul lug‘otayn», «Xazoyinul-maoniy» kabi risolalari fikr ifodalashda, so‘z tanlash va uni o‘z o‘rnida ishlatish, so‘zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga undaydiki, **buni uslubiy ta’limot demay bo‘lmaydi.**

O‘zbek tili uslubiyat fani bevosita rus tili stilistikasi ta’sirida, uning qolip va modellari zaminida vujudga keldi va rivojlana boshladi, desak xato bo‘lmas.

[1] Enazarov T. O‘zbek nutqi madaniyati. – Toshkent, 2017. – B. 55.

[2] Babakhanova, D. (2023). The Use of Verb Forms in Speech Styles. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 707-713. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

Jahon tilshunosligida, shu jumladan rus tilshunosligida ham **stilistika** tilning mohiyati va vazifalarini chuqur tahlil qilish natijasi o‘laroq fan sifatida ajralib chiqdi va rivojlanish yo‘liga kirib oldi. V.Gumboldt, I.A. Boduen de Kurtene, F. Sossyur, G.O. Vinokur, A.P. Yakubinskiy, Ya. Gort, V.V. Vinogradov, N.Yu. Shvedova kabilar nutqni o‘rganishga katta e’tibor berdilar. **Va nihoyat, lingvistik stilistika shakllandi.** Nutq hodisalari chuqur o‘rganila borgan sayin ilmiy tadqiqot obyektiga aylana boshladi.

Egalik, kelishik, zamon, mayl va boshqa qo‘shimchalarni o‘rinsiz yoki almashtirib ishlatish, olmoshdan foydalanmay, ot, sifat yoki sonni takrorlash kabilar ham uslubiy obyekt, uslubiy xulosalar manbaidir. Buni shartli ravishda «oddiy» yoki «normativ» uslubiyat deb ataymiz. «Normativ» («oddiy») uslubiyat ekspressiya bilan bog‘liq bo‘lmagan, tamomila neytral bo‘lgan til-nutq hodisalarini o‘rganadi. Masalan, …Muhammadjonni peshonasidan o‘pdi. (A.Q.) – Muhammadjonning peshonasidan o‘pdi. O‘quvchilarga ajratildi. – O‘quvchilar **uchun** ajratildi kabi gaplarda qo‘llangan shakllarning qaysi biri qanday holatda ishlatilishi aniqlanadi.

Bundan tashqari, arxaizm, istorizm, dialektizm, kasb-hunarga oid leksik qatlam so‘zlari, fanga oid terminlarning ishlatilishi ham ekspressivlik hosil qilmaydi. Demak, ular ma’lum bir nutq uslubiga xoslanganligi bilan ajralib turadi, xolos. Shu sababli bular ham «normativ» («oddiy») uslubiyatning tekshirish obyektidir.

Og‘zaki va badiiy publitsistik uslubda tashqi olam voqea-hodisalarini atayin bo‘rttirib, kuchaytirib ko‘rsatish, shu yo‘l bilan tinglovchi (o‘quvchi)ga, uning ruhiy holati, ong-tushunchasiga biror yo‘sinda ta’sir etish maqsadlarida **tovush**, **so‘z, birikma** va **gap** tanlash ham borki, buni biz ekspressiv uslubiyat deb ataymiz. Ekspressiv uslubiyat vositalari obraz yaratishda, voqelikni obrazli tasvirlashda, kishida salbiy yoki ijobiy his-tuyg‘u uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi.

Biz yuqorida uslubiyat obyekti bo‘lmaydigan hech qanday til va nutq hodisasi yo‘qligini aytib o‘tdik. Tilshunoslikning har bir bo‘limi u yoki bu darajada, yo normativ, yo ekspressiv uslubiyatning obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, unli va undoshlarning ishlatilishi, talaffuzi, urg‘u, pauza, takt va boshqalar normativ uslubiyat obyekti bo‘lsa; unlini cho‘zish, undoshni ikkilantirish, maxsus urg‘u berish, maxsus pauza, takt o‘rnini almashtirish, unliga, ba’zan undoshga maxsus rang berish (fonologik sintagmatika) kabilar ekspressiv uslubiyat obyektidir.

Morfemikada so‘z o‘zgartuvchi affikslar normativ, shakl yasovchilar ekspressiv uslubiyat obyektidir. So‘z yasalishida rus tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham uslubiy mohiyat bor deb qaraladi. Biroq uslubiyat so‘zni **o‘zak+yasovchi** (**o‘zak+o‘zak**)ga ajratib tekshirmaydi. Demak, so‘z yasalishi uslubiyat obyekti bo‘la olmaydi. Lekin **toshbag‘ir, otashqalb** kabi (murakkab so‘z) ko‘chma ma’noli yasalishlar bir butun holda ekspressiv uslubiyat obyekti bo‘lishi ham mumkin.

So‘z turkumlaridan foydalanish ham normativ uslubiyat obyektidir. [10:55] So‘z o‘zgartuvchi va shakl yasovchilardan foydalanish ham morfologik vositalar tushunchasiga kiradi. So‘z o‘zgartuvchi va shakl yasovchilarning vazifaviy almashinuvi ma’lum uslubiy maqsadlarga xizmat qildiriladi: **nondan yeng …** deyish bilan **butundan qism va hurmat; ovqatga qarab o‘tirilsin …** deyish bilan **hurmat; qani, ketdik …** deyish bilan da’vat kabi ma’nolar ifoda etiladi.

Til sintaktik vositalarining imkoniyati va ekspressiv – emotsional xususiyatlari beqiyosdir. Sintaktik kategoriyalar normativ uslubiyatning ham, ekspressiv uslubiyatning ham obyektidir. **Biz keldik** gapi **tinch ohang bilan aytilganda** oddiy uslubiyat obyekti, **alohida kuchli ohang bilan** aytilganda, axborot tushunchasiga **quvonish tushunchasi qo‘shiladi** va ekspressivlik hosil qiladi.

Tinish belgilari ham uslubiy vositadir. Ularning aksariyati bevosita emas, balki gap, gaplar semantikasi orqali uslubiy vazifa bajaradi. Qo‘shtirnoq, qavs ichida berilgan so‘roq va undov belgilari, ko‘p nuqta kabilar gap mazmuniga biror jilo, ekspressiya qo‘shishi bilan ajralib turadi.

Xullas, uslub atamasi o‘zbek tili taraqqiyotining turli davrlarida o‘ziga xos xusisiyatlarga ega bo‘lgan holda qo‘llangan. Uslubiyat esa, eng avvalo, normativ grammatika bilan chambarchas bog‘langan. Normativ grammatika qonun-qoidalariga to‘la amal qilish yoki uni buzish ham uslubiyat o‘rganadigan sohadir. Tilshunos olim A.Sh.Shomaqsudovning ta’kidlashicha, qadimgi yozma yodgorliklar tilini lingvo-stilistik aspektda tekshirish turkiy xalqlar adabiy tillarining stilistik tur-xillarini, turli stil elementlarining tarkib topishi jarayonini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu o‘zbek tili vazifaviy uslublarining shakllanish jarayonining tarixiy ildizlarini obyektiv tarzda hal etishning zarur shartlaridir biri hamdir.

Resume: The origin of the term “style” and its meanings, usage and characteristics are provided in this article. The process of conversation, official affair, scientific, publicist, an emergence of the artistic speech styles are also indicated in the article. Ancient novels and inheritances of Uzbek language’s development from the history as well as some works of the great scholars and ancestors such as Makhmud Koshgariy and Yusuf Xos Xojib are analyzed in the lingo-stylistic way within the article.

Резюме: В этой статье представлены происхождение термина «стиль» и его значение, использование и характеристики. В статье также указывается процесс появление разговорный, официальный, научный, публицистический и художественных стилей речи. Древние романы и наследие развития узбекского языка из истории, а также некоторые произведения великих ученых и предков, таких как Махмуд Кошгарий и Юсуф Хос Ксожиб, анализируются лингвостилистическим образом в рамках статьи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DARAK GAPLARDA NUTQIY AKT TUSHUNCHASI

Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna,
O'zbekiston Milliy universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi v.b.dotsenti

Jahon tilshunosligida yangi ilmiy paradigmalarning shakllanishi inson tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganish zaruriyatini belgiladi. Ijtimoiy hayotda kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayoni – kommunikatsiyani yuzaga chiqaruvchi nutq birliklarining pragmatik tadqiqiga e'tibor kuchaydi. Tobora o'sib borayotgan fan sohada yangilik sifatida til birliklarining nutqiy voqelanishi ularning nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog'liq muammolarini o'rganishga kirishdi. Bu esa fanning antroposentrik mohiyat kasb etishiga asos bo'ldi va tilshunoslikning psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi inson omili bilan bog'liq bo'lgan yangi sohalari shakllandi.

Pragmalingvistika sohada til birliklari tahlilining yangi usullari paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Natijada, o'zbek tilshunosligi lug'atida yangi terminlar paydo bo'ldi. Jumladan, nutqiy akt tushunchasi "odamlar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining"[1] bayonini ifodalaydi va pragmalingvistikaga bog'liq tushuncha hisoblanadi.

Sodda gaplarni pragmatik jihatdan tahlil qilish tilning kommunikativ birliklarini taqozo etadi. O'zbek tilidagi sodda gaplarni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilish an'anaviy tilshunoslikda qo'lga kiritilgan ilmiy-nazariy xulosalarni zamonaviy lingvistik tahlil usullari yordamida boyitadi. Natijada til birliklarining (jumladan, sintaktik belgilar) mohiyatini chuqurroq yoritadi.

Nutqiy akt tushunchasi pragmalingvistikaning tayanch tushunchalaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Nutqiy faollik so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi borliq-hodisa haqidagi bilimi va bu bilimga har ikkala subyektning munosabati bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. «So'zlovchi obyektiv olamdagi voqeliklarni ko'radi, ma'lum his-tuyg'ular vositasi bilan anglaydi, idrok qiladi. Aloqa-aralashuv jarayoni bilish, anglash, ifodalash, sezish, uqish bilan uzviy aloqador ifoda formalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ifoda formalarining qo'llana boshlashining o'zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo'la boshlaydi»[2]. Nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir[3].

Nutqiy akt tushunchasi tilni falsafiy mantiqiy o'rganish bilan bog'liq bo'lib, til birliklarining funksional «qo'llanish darajasi» mohiyati bilan oydinlashadi. Nutqiy akt muammolariga oid ma'lumotlar V.Gumboldt, Sh.Balli, S.Karsevskiy, L.P.Yakubinskiy, K.L.Byuller, E.Benvenist, M.M.Baxtin kabi olimlarning lingvistik qarashlarida uchraydi.

Har qanday ifodada so'zlovchi ma'lum bir harakatni sodir etadi. Ma'lum maqsad uchun yo'naltiril-

[1] Собирова М. Газета матнларида нутқий актларнинг ифодаланиш усуллари// Ўзбекистонда хорижий тиллар. - №3(32). – Тошкент, 2020. – Б. 42-51.

[2] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан.док. ..дис.

[3] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 71.